



**MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARI**  
**SHAKLLANISHIDA SIYOSIY PARTIYALAR ISHTIROKINING**  
**KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI**

**MIRZAYUSUPOV SHOXRUH**  
**IV SURXONDARYO AKADEMIK**  
**LITSEYI HUQUQSHUNOSLIK**  
**FANI O'QITUVCHISI**

Mamlakatimizda mahalliy vakillik organlaridagi partiya guruuhlarining mahalliy ijro hokimiyati organlari hamda hududlardagi boshqa mansabdar shaxslar faoliyati ustidan samarali deputatlik nazoratining o'rnatilishi masalasi ham bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanganligini ta'kidlash lozim. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev haqli ravishda e'tirof etganidek, "Biz yurtimizda ko'ppartiyaviylik tizimini mustahkamlab, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarda partiyalarning rolini oshirishga ko'maklashamiz. Kachonki siyosiy partiyalarning faolligi oshib, parlament faoliyati doirasida ular o'rtaasida sog'lom raqobat va bahs-munozara muhiti shakllansa, shundagina vakillik hokimiyati organlari ham samarali faoliyat ko'rsatadi. Buni hayotning o'zi hammamizga har kuni ko'rsatyapti. Agar rahbarlarimiz xalq vakillari bilan maslahat qilib ish tutsa, xato kam bo'ldi. Shuning uchun vakillik hokimiyati organlari ishi samarali bo'llishida partiyalarimiz faolligini oshirishimiz shart. Xalq deputatlari mahalliy kengashlarida partiya guruuhlarining vakolati va rolini oshirish, ayniqsa, ijro hokimiyati organlari faoliyatini nazorat kilish borasidagi ta'sirini yanada kuchaytirish zarur"<sup>1</sup>. Shu bois mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida siyosiy partiyalar ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

S.Berdikulovning fikricha, O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining milliy modelini shakllantirish bo'yicha qonunchilik shart-sharoitlari □ yakka partiya

<sup>1</sup> Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni kat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. □ Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. □ B.44.



hukmron bo\u0437lgan ijtimoiy-siyosiy tizimdan haqiqiy ko\u043eppartiyaviylik tizimiga, mafkuraviy monopolizmdan siyosiy plyuralizmga (ko\u043epfikrlilik) o\u0438tish vazifasi amalda ta\u0437minlandi<sup>2</sup>.

Siyosiy islohotlar jadal sur\u0437atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda mamlakatimizda davlat hokimiyatining vakillik organlarida siyosiy partiyalarning ishtirokiga oid tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish masalalari nafaqat amaliyotchilar, balki ijtimoiy fanlarning turli yo\u0437nalishlari bo\u0437icha ilmiy izlanishlar olib borayotgan olimlarning diqqat markazida turibdi. Ushbu qiziqishni yurtimizda oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan siyosiy-huquqiy islohotlarning dinamikasi bilan tavsiflash mumkin.

Mamlakatimizda siyosiy tizimning isloh qilinishi saylab qo\u0437yiladigan davlat hokimiyati organlarini shakllantirish bilan bog\u0437liq tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni tubdan qayta ko\u0437rib chiqish zaruratini keltirib chiqardi. So\u0437nggi yillar davomida siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etishi masalasiga yetarlicha e\u0438tibor qaratilmasdan kelingan edi. Shu bois mamlakatimizda formal emas, balki haqiqiy ma\u0437noda faoliyat yuritadigan ko\u043eppartiyaviylik tizimining shakllanayotganligi ushbu jarayonni samarali va mukammal huquqiy asoslar bilan ta\u0437minlashni taqozo qilayotganligi barchaga ma\u0437lum bo\u0437ldi. Natijada siyosiy partiylar faoliyatini tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni jiddiy tarzda inventarizatsiyadan o\u0438tkazish, mavjud bo\u0437shliq va kolliziyalarini bartaraf etish zarurati yuzaga keldi.

A.Maxmudov mahalliy Kengashlarning faoliyatiga oid normativ-huquqiy baza tizimli ravishda rivojlanib borayotganligini ko\u0437rsatib o\u0438tish barobarida, bu boradagi asosiy tendensiyalar sifatida quyidagilar belgilanganligini qayd etadi: birinchidan, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi, xususan, budget-moliya munosabatlari sohasidagi nazorat funksiyalari bosqichma-bosqich kengaytirildi; ikkinchidan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarini shakllantirish

<sup>2</sup> Berdikulov S.N. O\u0437zbekistonda ko\u043eppartiyaviylik milliy modelini rivojlanirish istiqbollari: O\u0437quv qo\u0437llanma / Mas\u0437ul muharrir: falsafa fanlari doktori, professor Mamadaliev Sh.O. T.: O\u0437zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. 108 b.

masalalarini hal etishda, ular faoliyatini nazorat qilishda xalq deputatlari Kengashlarining roli va o'rni kuchaytirildi; uchinchidan, mahalliy Kengashlarga huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati ustidan nazorat olib borish vakolati berildi; to'rtinchidan, xalq deputatlari Kengashlari nazorat faoliyatini amalga oshirishda siyosiy partiyalar, ularning Kengashlardagi guruhlarining roli va faolligi, vakolatlari kengaytirildi<sup>3</sup>.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mahalliy davlat hokimiyatining asoslarini belgilab bergan. Konstitutsiyaning XXI bobida (99 □ 104-moddalar) viloyat, tuman va shaharlarda hokim boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etishi, mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga kiradigan masalalar, ularning vakolat muddati, hisobdorligi, mansabdor shaxslarning lavozimga qo'yilishi, javobgarligiga oid normalar o'z ifodasini topdi<sup>4</sup>.

1992 yilning 4 yanvarida O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni kuchga kirdi. Aynan shu qonun asosida mahalliy davlat hokimiyatining ikki mustaqil □ vakillik va ijroiya organlari joriy qilindi. 1993 yil 2 sentabrda O'zbekiston Respublikasining □Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonunning qabul qilinishi mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati organlarining tizimi, tuzilishi, vakolatlari, vazifalari, tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy faoliyat shakllari, joylarda qonuniylikni ta'minlashda ularning o'zaro huquqiy munosabatlarini belgilab berdi.

Ushbu Qonunning 1-moddasiga asosan, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlaridir.

<sup>3</sup> Maxmudov A.A. O'zbekiston Respublikasida mahalliy vakillik organlarining nazorat faoliyatini takomillashtirish. Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ... dissertatsiyasi avtoreferati. □ T.: DBA, 2019. □ B.13 □ 14.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. □ T.: O'zbekiston, 2018. □ 80 b.

Viloyat, tuman, shahar hokimi viloyat, tuman va shaharning oliv mansabdon shaxsi bolib, ayni bir vaqtida tegishli hududdagi vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqaradi<sup>5</sup>.

Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini saylash tartibi 1994 yil 5 mayda qabul qilingan “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov toqrisida”gi Qonun bilan tartibga solinadi. Bu Qonunga asosan mahalliy vakillik organlarining hamma boqinlari saylov yoli bilan tashkil qilinadi. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylovnini tartibga soluvchi qonun, avvalgi qonunlardan farqli ravishda, kopagina yangi holatlarni joriy etdi.

“Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov toqrisida”gi Qonundan keyin mahalliy vakillik hokimiyati organlari, xususan, siyosiy partiyalarning saylanadigan deputatlarining huquqiy holatini belgilashga qaratilgan bir qator qonunlar qabul qilindi. Xususan, 1995 yil 6 maydagidan Ozbekiston Respublikasida deputatlarning maqomi toqrisidaiga va 1996 yil 26 apreldagidan Ozbekiston Respublikasida deputatni chaqirib olish tartibi toqrisidaiga qonunlar shular jumlasidandir.

Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 26 noyabrdagi Tumanga boysunuvchi shaharlar hokimliklari boshqaruvi organlarining tuzilmasini takomillashtirish toqrisidaiga PF 1651-sod Farmoniga koora tumanga boysunuvchi shaharlar hokimliklarining apparatlari tugatilib, ularning vazifalarini bajarish tegishli tuman hokimliklariga topshirildi.

2008 yilning 1 yanvaridan e'tiboran Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93-moddasining 15-bandiga va 102-moddasiga kiritilgan ozgartish va qoshimchalar, shuningdek Ozbekiston Respublikasining Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizasiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish toqrisidaiga Konstitutsiyaviy qonuni kuchga kirganidan soeng mahalliy davlat hokimiyati organlariga rahbarlikni amalga

<sup>5</sup> Ozbekiston Respublikasining Mahalliy davlat hokimiyati toqrisidaiga Qonuni // Ozbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi, 1993. № 9, 320-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz, 09.01.2019., 03/19/512/2435-sod.

oshiruvchi hokimlar, shuningdek xalq deputatlari Kengashlari masuliyati yanada kuchaydi. Ushbu Qonun amaldagi qonunchilikka jiddiy o'zgartishlar kiritishning huquqiy asosi bo'lib xizmat qildi. Mazkur Qonunning 6 va 7-moddalariga asosan O'zbekistonda yangi institutlar, ya'ni hokim vazifasini bajaruvchi, partiya guruhlari bilan maslahatlashuv, xalq deputatlari Kengashlarini tarqatib yuborish, shuningdek partiya guruhlariga viloyat va Toshkent shahar hokimi lavozimiga tasdiqlangan shaxslarning qoniqarsiz faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga asoslangan xulosalar taqdim etish (hokim istefosini talab qilish) institutlari shakllandi<sup>6</sup>.

2014 yil 16 apreldagi O'zbekiston Respublikasining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida<sup>7</sup>gi Konstitutsiyaviy qonunining 1-moddasi 5-bandiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 103-moddasi quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to'ldirildi: “Viloyat, tuman va shahar hokimi tegishli xalq deputatlari Kengashiga viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlar taqdim etadi, ular bo'yicha xalq deputatlari Kengashi tomonidan tegishli qarorlar qabul qilinadi”.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 22 fevraldagagi Hududlarni kompleks rivojlantirishni ta'minlashda mahalliy davlat boshqaruvi organlari faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida<sup>7</sup>gi PQ-2495-son qarori asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, shu jumladan, Toshkent shahar hokimliklarida davlat boshqaruvi ishlarining samaradorligini yanada oshirish maqsadida hokimning Ma'muriy masalalar, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish, o'zini o'zi boshqarish organlari va yoshlar siyosati bo'yicha birinchi o'rinnbosari lavozimi joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasining “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizasiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni.

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014, - № 16, 176-modda.

27 apreldagi 123-sон qarori bilan esa xizmat vazifalari namunaviy nizomda tasdiqlab berildi.

2016 yilning 22 dekabrida esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining □Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish to□g□risida□gi PQ□2691-son qarori qabul qilinib, tuman hokimligida alohida yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma□naviy-ma□rifiy ishlar bo□yicha o□rinbosar lavozimi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи PF□4947-sон Farmoniga asosan □2017□2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo□nalishi bo□yicha Harakatlar strategiyasi□ qabul qilindi. Ushbu Harakatlar strategiyasida 2017 yilning III choragida yangi tahrirdagi □Mahalliy davlat hokimiyati to□g□risida□gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish nazarda tutilgan. Ushbu qonun loyihasida quyidagi normalar bo□lishi kerakligi qayd etilgan:

mahalliy davlat hokimiyati organlarining tuzilmasini takomillashtirish va qonunlar ijrosini ta□minlash borasidagi vakolatlarini aniqlashtirish;

viloyat, tuman, shahar hokimlarining va boshqa mansabdor shaxslarning o□z faoliyati yuzasidan tegishli hududdagi aholi oldida hisobot berish va hisobotga oid ma□lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish tartibini joriy etish;

xalq deputatlari Kengashlari tomonidan mahalliy ijroiya hokimiyati organlari faoliyati ustidan deputatlik nazoratini amalga oshirish shakllari va mexanizmlarini aniqlashtirish;

xalq deputatlari Kengashlarining faoliyatini tashkiliy va texnik jihatdan ta□minlaydigan ijrochi kotiblar lavozimini ta□sis etish<sup>8</sup>.

Siyosiy partiylar va ularning mahalliy davlat vakillik organlarida faol ishtirokini ta□minlashga qaratilgan qonunchilik tizimi yaratilganligiga qaramasdan, qonunchilik va amaliyotda bir qator muammolar mavjud ekanligini qayd etish joiz. Xususan, siyosiy partiylar to□g□risidagi ayrim qonun hujjatlaridagi normalarning hozirgi kun talablariga javob bermasligi va yangi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishni qamrab

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017, - № 6, 70-modda.

ola olmasligi kabilar shular jumlasidandir<sup>9</sup>. Siyosiy partiyalar vakolatlarining torligi hamda siyosiy partiyalarning jamiyatdagi mavjud muammolarni partiya tomonidan tavsiya etilgan hamda saylovlarda mahalliy Kengash va Oliy Majlis Qonunchilik palatasida oʻrin olgan deputatlar orqali hal etish mexanizmlari yetarlicha yoʻlga qoʻyilmagan. Oʻzbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar toʻgʻrisida”gi Qonunida siyosiy partiyalarning huquqlari sifatida saylab qoʻyiladigan davlat organlaridagi oʻz vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish kabi tashkiliy tusdagi vakolatlari belgilangan. Bundan tashqari, mahalliy kengashlarning vakolatlari ijroiya organlaridan ajratilmaganligi, ularning qonunchilik faoliyatini amalga oshirish oʻrniga qonunlarni ijro etish bilan shugʻullanishiga olib kelmoqda va bu esa, oʻz navbatida, hokimiyat vakolatlarining boʻlinish prinsipiga zid hisoblanadi.

Shu bilan birga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarining toʻgʻridan-toʻgʻri qonunchilik tashabbusi vakolatlariga ega emasligi, ularning mahalliy miqyosdagi muammolarni hal qilish boʻyicha vazifalarini toʻlaqonli amalga oshirishlariga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda va siyosiy partiyalarning faolligini faqatgina Oliy Majlis Qonunchilik palatasi doirasida kuzatib kelmoqdamiz.

Xulosa qilib aytganda, Oʻzbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari shakllanishida siyosiy partiyalar ishtirokini mustahkamlashga oid konstitutsiyaviy-huquqiy asoslardagi qoidalar mamlakatda ijtimoiy, siyosiy faollikni yanada oshirishga, davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini oʻrnatishga qaratilgan. Ayni paytda partiyalarning fuqarolar siyosiy-huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, qabul qilingan qonunlarning ijrosi ustidan samarali monitoringni tashkil qilish, amaldagi hukumatning faoliyatini nazorat qilish va muqobil qarorlar ishlab chiqish, mahalliy hokimiyat organlariga taʼsir oʻtkazish masalalariga oid huquqiy asoslarni takomillashtirish bugungi kunda huquq ijodkori oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

<sup>9</sup> Izoh: “Siyosiy partiyalar toʻgʻrisida”gi Qonunning 1996 yilda qabul qilinganligi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoqimizni katalogiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koqtaramiz. Toshkent: Ozbekiston NMIU, 2017. B.44.
2. Berdikulov S.N. Ozbekistonda kooppartiyaviylik milliy modelini rivojlantirish istiqbollari: Oquv qo'llanma / Masul muharrir: falsafa fanlari doktori, professor Mamadaliev Sh.O. T.: Ozbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. 108 b.
3. Maxmudov A.A. Ozbekiston Respublikasida mahalliy vakillik organlarining nazorat faoliyatini takomillashtirish. Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ... dissertatsiyasi avtoreferati. T.: DBA, 2019. – B.13–14.
4. Ozbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: Ozbekiston, 2018. – 80 b.
5. Ozbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiysi to‘g‘risida”gi Qonuni // Ozbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi, 1993. № 9, 320-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi www.lex.uz, 09.01.2019., 03/19/512/2435-son.
6. Ozbekiston Respublikasining Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizasiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni.
7. Ozbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toplami, 2014, - № 16, 176-modda.
8. Ozbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toplami, 2017, - № 6, 70-modda.
9. Izoh: “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonunning 1996 yilda qabul qilinganligi.